

## ZULM ZANJIRI AVLODDAN AVLODGA O‘TUVCHI TARBIYA XATOSI

*Qurbonova Zaxro Safarali qizi*

*ISFT instituti Pedagogika va psixologiya yo‘nalishi 5-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada oiladagi zo‘ravonlik va qat‘iy intizomga asoslangan tarbiya usullarining avloddan avlodga o‘tish mexanizmlari, ya‘ni "zulm zanjiri" fenomeni tahlil qilinadi. Tadqiqotda bolalikdagi psixologik travmalarning kelajakda ota-onalik modellariga ta‘siri hamda ushbu nosog‘lom zanjirni uzishning psixologik yo‘llari yoritilgan.

**Annotation:** This article analyzes the mechanisms of intergenerational transmission of violence and strict discipline-based upbringing methods, known as the "cycle of violence" phenomenon. The study highlights the impact of childhood psychological trauma on future parenting models and explores psychological ways to break this unhealthy chain.

**Аннотация:** В данной статье анализируются механизмы передачи насилия и методов воспитания, основанных на строгой дисциплине, из поколения в поколение, известных как феномен «цепи насилия». В исследовании освещается влияние психологических травм детства на будущие родительские модели и рассматриваются психологические пути разрыва этой нездоровой цепи.

**Kalit so‘zlar:** zulm zanjiri, avlodlararo travma, oilaviy zo‘ravonlik, tarbiya xatosi, psixologik determinizm, kognitiv model, rehabilitatsiya.

**Keywords:** cycle of violence, intergenerational trauma, family violence, educational error, psychological determinism, cognitive model, rehabilitation.

**Ключевые слова:** цепь насилия, межпоколенческая травма, семейное насилие, ошибка воспитания, психологический детерминизм, когнитивная модель, реабилитация.

### KIRISH

Inson shaxsining shakllanishida oila hal qiluvchi rol o‘ynaydi, biroq har doim ham bu ta‘sir ijobiy bo‘lavermaydi. Psixologiyada "transgeneratsion travma" yoki "zulm zanjiri" deb ataladigan tushuncha mavjud bo‘lib, u ota-onalar o‘z vaqtida ko‘rgan tazyiq va zulmni ongsiz ravishda o‘z farzandlariga o‘tkazishini ifodalaydi. Ko‘pincha "meni ham shunday tarbiyalashgan, odam bo‘ldim-ku" degan noto‘g‘ri paradigma ostida jismoniy va ruhiy bosim tarbiya usuli sifatida oqlanadi. Maqolaning maqsadi ushbu tarbiya xatosining psixologik ildizlarini ochib berish va uning jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta‘sirini tahlil qilishdir.

### ASOSIY QISM

Zulm zanjiri psixologik mexanizm sifatida "agressor bilan identifikatsiya" jarayoniga tayanadi. Bolalikda ota-onasidan zulm ko‘rgan shaxs, ulg‘aygach ongsiz

ravishda kuchli tomon (ya'ni agressor) pozitsiyasini egallash orqali o'zining bolalikdagi qo'rquv va ojizligini kompensatsiya qilishga urinadi. Bu jarayonda shafqatsiz intizom, hissiy sovuqlik va bolaning shaxsiyatini kamsitish normal holat deb qabul qilinadi. Natijada zulm ko'rib o'sgan bola o'z farzandiga nisbatan ham xuddi shunday munosabatda bo'ladi va bu zanjir avlodlar davomida takrorlanib keladi.

Psixologik nuqtai nazardan bunday tarbiya xatosi bolada "baxtsiz shaxs" modelini shakllantiradi. Zulm muhitida o'sgan o'quvchilarda o'ziga bo'lgan ishonchning pastligi, agressivlik yoki haddan tashqari tortinchoqlik, shuningdek kognitiv funksiyalarning pasayishi kuzatiladi. Ular doimiy stress holatida yashaganliklari sababli, ularning miyasi bilim olishga emas, balki "omon qolish" (surviving) rejimiga moslashib qoladi. Bu esa nafaqat ta'lim sifatiga, balki shaxsning ijtimoiy moslashuviga ham jiddiy zarar yetkazadi.

Ushbu zanjirni uzish uchun avvalo muammoni tan olish va anglash lozim. Pedagogika va psixologiya yonalishi mutaxassislari sifatida shuni ta'kidlashimiz kerakki, tarbiyadagi qat'iylik shafqatsizlik bilan almashtirilmasligi shart. Avloddan avlodga o'tayotgan ushbu patologik modelni faqatgina emotsional intellektni oshirish va o'z ustida ishlash orqali to'xtatish mumkin. Ota-onalar o'zlarining bolalikdagi travmalarini tahlil qilishlari va farzandlariga nisbatan "zo'ravonliksiz tarbiya" (non-violent communication) tamoyillarini qo'llashlari jamiyatning ma'naviy sog'lomlashuviga xizmat qiladi.

### **XULOSA**

"Zulm zanjiri" — bu jamiyatning ma'naviy-ruhiy ildizlariga bolta uruvchi jiddiy tarbiya xatosidir. Avloddan avlodga o'tuvchi bu agressiya to'xtatilmagan ekan, sog'lom va erkin fikrli avlodni tarbiyalash imkonsiz bo'lib qolaveradi. Psixologik rehabilitatsiya, ota-onalar uchun ta'lim dasturlari va jamiyatda zo'ravonlikka nisbatan muvofiqlik muhitini yaratish ushbu zanjirni uzishning asosiy omillaridir. Bizning vazifamiz — zulm ko'rgan bolalardan zulmkor ota-onalar emas, balki mehrlil va anglangan shaxslar yetishib chiqishiga ko'maklashishdan iborat.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Shoumarov G'.B. Oila psixologiyasi Toshkent 2008.
2. G'oziyev E.G'. Ontogenez psixologiyasi Toshkent 2010.
3. Fromm E. Inson anomaliyasi Moskva 1993.
4. Miller A. For Your Own Good Hidden Cruelty in Child-Rearing and the Roots of Violence Farrar Straus Giroux 2002.
5. Nishonova Z.T. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya Toshkent 2013.
6. Karimov V.M. Ijtimoiy psixologiya darslik Toshkent 2012.